| Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li                                                                                                                                       |     |
| INVESTITSIYALARNING KIRIB KELISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....                                                                       | 467 |
| Alimova Dilafro'z Tohir qizi                                                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOT SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH<br>VA INVESTORLAR UCHUN AXBOROT OCHIQLIGINI TA'MINLASH .....                                           | 470 |
| Turdikulova Gulshad Nurmamatovna                                                                                                                                                   |     |
| ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI<br>OSHIRISHDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI.....                                   | 477 |
| Uztemirov Alisher Aktam o'g'li                                                                                                                                                     |     |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI<br>TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN BANDLIK TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH .....                               | 482 |
| Tursunov Bekmuxammad Omonovich                                                                                                                                                     |     |
| XORIY TAJRIBALARIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH TARTIBI METODOLOGIYASINING MAVJUD<br>METODLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....                                                          | 489 |
| Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna                                                                                                                                                  |     |
| IQTISODIY XAVFSIZLIKNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING MAMLAKAT<br>IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....                                                                                      | 496 |
| Ramatillaev M.R.                                                                                                                                                                   |     |
| TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SUG'URTALASH VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH<br>MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                             | 502 |
| Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li                                                                                                                                                |     |
| TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI BAHOLASH VA KUCHAYTIRISHNING<br>ZAMONAVIY METODOLOGIYASI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....                                                        | 506 |
| Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich                                                                                                                                                    |     |
| XALQARO REYTING TASHKILOTLARINING OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA TA'SIRI VA MAVJUD<br>PLATFORMALAR.....                                                                                | 515 |
| O'rozboyev Xayrulla Murodboy o'g'li                                                                                                                                                |     |
| TALABALAR MOTIVATSIYASINING MEKANIZMLARI: LOYIHA ASOSIDAGI TA'LIM<br>TEKNOLOGIYALARIDA.....                                                                                        | 523 |
| Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanoyna                                                                                                                                        |     |
| ISH KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA NORASMIY BANDLIKNI SOYADAN CHIQRISH<br>BO'YICHA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQISH .....                                                                | 531 |
| Pulaton Dilshod Xaqberdiyevich, Maxkamova Shaxlo Yulchiyevna, Absamatov Baxrom Danakulovich                                                                                        |     |
| KASBIY TA'LIM MAZMUNIDA TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI<br>RAG'BATLANTIRISH ORQALI O'RTA BO'G'IN KADRLAR TAYYORLASHNING JOZIBADORLIGINI<br>OSHIRISH YO'NALISHLARI ..... | 538 |
| Tojiyev Sirojiddin Sayriddinovich                                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH TIZIMINING TURLARI<br>VA SHAKLLARI.....                                                                                           | 542 |
| Muminova Mavjuda Sharifovna                                                                                                                                                        |     |
| SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGI<br>MASALALARI .....                                                                                              | 547 |
| Kadirkhodjayeva Nilufar Rahmatullayevna                                                                                                                                            |     |
| MHXSGA MUVOFIQ ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....                                                                                                             | 552 |
| Aliyev Sherzod Abdixomidovich                                                                                                                                                      |     |
| ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ПОТЕНЦИАЛА<br>ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....                                                                                        | 558 |
| Аллаева Г.Ж.                                                                                                                                                                       |     |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH<br>YO'NALISHLARI .....                                                                                      | 564 |
| Irisqulova Munisa Akmal qizi                                                                                                                                                       |     |
| TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARI DOIRASIDA 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR<br>TAHLILI .....                                                                                      | 569 |
| Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li                                                                                                                                                |     |
| MINTAQA SANOATIDA AHOLI JON BOSHIGA YAQQ O'ZGARISHINING DINAMIK TAHLILI.....                                                                                                       | 574 |
| Nabiyev G'ulom Abdusalomovich                                                                                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| INFRATUZILMAVIY INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI .....                   | 583 |
| Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li                                                                                                                             |     |
| ПРОБЛЕМЫ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В ЭКОЛОГИИ.....                                                                                          | 587 |
| Максудова Шахиста                                                                                                                                              |     |
| PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINING INVESTITSION FAOLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI .....                                                         | 593 |
| B.Sh.Shadmanov                                                                                                                                                 |     |
| ECONOMIC INDICATORS OF SUPPLY CHAIN EFFICIENCY IN UZBEKISTAN'S EXPORT SECTOR .....                                                                             | 597 |
| Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna                                                                                                                       |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBI VA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                            | 602 |
| Muxtorova Maftuna Salohiddin qizi                                                                                                                              |     |
| RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BANKLARNING XAVFSIZLIGI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI .....                                      | 607 |
| Aliyeva Umidaxon Xusanboyevna                                                                                                                                  |     |
| XIZMATLAR SOHASI VA KAMBAG'ALLIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....                                                                                            | 611 |
| Dawletmuratov Adilbay Mirzabaeovich                                                                                                                            |     |
| PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL CLUSTERS BASED ON THE PRINCIPLES OF A "GREEN ECONOMY" .....                                                        | 615 |
| Boboqulov Sanjar Baxronkulovich, Kamolov Oybek Faxriddin o'g'li                                                                                                |     |
| ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ..... | 620 |
| Халимжанов Дилшод Эргашбекович                                                                                                                                 |     |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                                                                      | 626 |
| Mavlyanov Muzaffar Yusupovich                                                                                                                                  |     |
| NAMANGAN VILOYATI TURIZM SOHASINING SO'NGGI YILLARDA RIVOJLANISHI VA STATISTIK TAHLILI .....                                                                   | 630 |
| Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....                                 | 634 |
| Faxriddinov Bahriddin                                                                                                                                          |     |
| INNOVATSION SHAROITDA TO'QIMACHILIK SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....                                                                                | 640 |
| Sattarov Ilkhomjon Rahimjanovich                                                                                                                               |     |
| IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....                                                                               | 645 |
| Nurmatov Norbek Jo'rayevich                                                                                                                                    |     |
| MINTAQA LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION VA INSTITUTSIONAL ISTIQBOLLARI .....                                                | 652 |
| Xalimov Javlonbek Shaxriyovich                                                                                                                                 |     |
| KORXONALARNING BANKROTLIK EHTIMOLINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA PROGNOZLASH .....                                                                              | 659 |
| Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li                                                                                                                           |     |
| АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ .....                                                                                                        | 665 |
| Шомуродов Равшан Турсункулович                                                                                                                                 |     |
| MEDIA LOYIHALARINI BOSHQARISH: O'ZBEKISTON OAV AMALIYOTI TAHLILI .....                                                                                         | 673 |
| Yo'ldosheva Dilobar Jaxongir qizi                                                                                                                              |     |
| O'QITISH NATIJALARINI ZAMONAVIY BAHOLASH TAMOYILLARI .....                                                                                                     | 677 |
| Abdullayeva Sanobar Berdiyevna, Xujakulov Shaxriyor Shokir o'g'li                                                                                              |     |
| MALAYZIYADA PROGRESSIV VA INKLYUZIV ISLOMIY MOLIVA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: 2024-YIL TAJRIBASI VA NATIJALARI .....                                             | 681 |
| Safarova Nasiba Gulmurod qizi                                                                                                                                  |     |



|                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-----|
| МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ПРОВЕДЕНИЯ ПРОЦЕДУР ДЬЮ-ДИЛИДЖЕНС В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ..... | 687 |
| Прокудина Кристина Александровна                                                  |     |
| HUDUDLARDA INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....                 | 692 |
| Xalilova Madinabonu Abduraxmon qizi                                               |     |
| LIZING MUOMALALARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....   | 701 |
| Baxadirov Alisher Komilovich                                                      |     |



# LIZING MUOMALALARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

**Baxadirov Alisher Komilovich**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universitetining mustaqil izlanuvchisi

O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi

"Buxgalteriya hisobi" kafedrasida dotsenti

[abakhadirov@mail.ru](mailto:abakhadirov@mail.ru)

ORCID: 0000-0001-5893-3223

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Lizing muomalalari hisobini xalqaro standartlar asosida yuritilishi va hisobot tuzilishi tartiblari o'rganib chiqilgan va asosiy ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** lizing, lizing oluvchi va lizing beruvchi, lizing muomalalari hisobi, transformasiya, xalqaro standartlar.

**Abstract.** This article provides the basic principles and basic information on the formation and functioning of international leasing standards.

**Key words:** leasing, leasing services and leasing services, leasing services, transformation, international standards.

**Аннотация.** В данной статье приведены основные принципы и основные сведения о порядке формирования и функционирования международных стандартов лизинга.

**Ключевые слова:** лизинг, лизинговые услуги и лизинговые услуги, лизинговые услуги, трансформация, международные стандарты.

## KIRISH

Jahon mamlakatlari iqtisodiyot samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy munosabatlarning turli shakllaridan, shu jumladan lizing xizmatlaridan foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Lizing munosabatlari xar bir mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim joy egallab bormoqda, shu jumladan Respublikamizda ham lizing muomalalarini rivojlantirish va uning hisobini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, lizing xizmatlari tannarxini kamaytiradi, lizing bshartnomalarini tuzish va ijro etish jarayonini jadallashtiradi, lizing sohasida axborot mahfiyligini va xavfsizligini oshiradi. Lizing sohasiga ish yuritish va hujjatlar aylanmasini elektron platformalar, mobil ilovalar, mijozning shaxsiy kabineti kabi IT-texnologiyalarning joriy etilishi lizing kelishuvlarini imzolash va ijro etish samarasini oshiradi, risklarni kamaytiradi, lizing sohasining umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Lizing xizmatlari to'g'risidagi axborotlarni taqdim etish majburiyatini o'rnatish va kredit axborotlar bazasidan yagona lizing milliy bazassiga asoslanishi lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

P.Baltus va B.Maydjerning ta'kidlashicha, Qadimgi Shumer (zamonaviy Iroq) da bundan tahminan eramizdan avval, 2000 yil avval ijara bitimlari bo'lgan. Bu to'g'risida 1984 yilda qadimgi Shumerning Ur shahrida topilgan sopol lavhalar fermerlar bilan monastir ruhoniylar o'rtasida er, suv manbalari, qishloq xo'jaligi anjomlari, xayvonlarni ijaraga berish bitimlari aks ettirilgan. Tarixning guvoh berishicha, qadimda ijara biron-bir aniq mulkni ijaraga berish bilan chegaralanmagan. Bu davrda nafaqat qishloq xo'jaligi texnologiyasi va hunarmandchilik asbob – uskunalari, balki harbiy aslohalari, qurol yaroqlar, suv kemalari, turar joylar ham ijaraga berishgan. Ma'lumotlarga qaraganda, ijara bitimi amaliyotida qo'llanilgani tasdiqlovchi birinchi hujjat 1066 yilga borib taqaladi. Bunda, qirol Vilgelm Normand aholisidan kemalarni Britaniya orollarini ishg'ol qilish uchun ijaraga olinganligi qayd etilgan. Venesiyada esa XI asrda lizing muomalalariga o'xshash bitimlar mavjud bo'lib, bu asta-sekin rivojlanib mamlakatlar tarixiga lizing muomalasini kiritish boshladi.

Respublikamiz olimlaridan lizing muomalalarini bir nechta olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida, o'quv qo'llanmalarida lizing bo'yicha o'z ta'riflarini keltirib o'tishgan. Kuljonov O.M.ning fikricha, lizing deganda bu



mulklarni lizing beruvchi tomonidan belgilangan mulkni sotuvchidan sotib olish va uni lizing shartnomasi asosida jismoniy va xuquqiy shaxslarga, ya'ni lizing oluvchiga belgilangan to'lov hisobiga, qat'iy muddatga va shartlarda, mulkni keyinchalik lizing oluvchi tomonidan sotib olish huquqi bilan berish bo'yicha investisiya faoliyatining bir turi hisoblanadi. Hamda, Xoshimova A.T. fikricha, lizing faoliyati bu daromad olish uchun moliyaviy investitsion maqsadli yo'nalishidagi vositachilik xizmatlaridir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Lizing korxonalarining moliyaviy hisobotlaridan foydalanuvchilar uchun hisob siyosatining o'ziga xos jihatlari yoritib berishning ustuvorligini ko'rib chiqishda rahbarlar u xo'jalik yurituvchi sub'ektning xatarlarini va kelgusidagi pul mablag'i oqimini baholashga imkon berishini e'tiborga olishi kerak. Lizing korxonalarida hisob siyosatini yoritib berish quyidagi axborotlarni o'z ichiga oladi:

- foydani aks ettirish;
- faoliyat turlari bo'yicha hisob yuritilishi;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning kirimi, hisobdan chiqarilishi va eskirishining turlari bo'yicha batafsil ma'lumot;
- jalb etilgan mablag'lar qiymatining kapitalizatsiya qilinishi va shunga o'xshash boshqa xarajatlar hisobini ochib berish;
- kapital qo'yilmalar hisobi;
- investitsion mulk hisobi;
- moliyaviy instrumentlar va boshqa turdagi investitsiyalar hisobi;
- ijaraning hisobda yuritilishi;
- tovar-moddiy zaxiralarning kirim va chiqim qilinishi dasturi;
- lizing korxonasiga oid soliqlarning turlari va ularning hisobini yuritilishi;
- zaxiralarning hisobi;
- xodimlar ish xaqi va boshqa qo'shimcha xarajatlar hisobi;
- xorijiy valyutani o'tkazish;
- boshqa faoliyatga doir korrespondensiyalarning hisobi.

Lizing beruvchi va oluvchi korxonalarda moliyaviy hisobotning satrlariga lizing muomalalari bo'yicha qo'shimcha bandlarni kiritish bo'yicha takliflar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan lizing muomalalarini hisobi bo'yicha qarzdorlik va uning qoldiqlarini moliyaviy hisobot shaklidagi o'zgarishlar orqali aks ettirilgan jadvalni ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Lizing korxonalarida moliyaviy hisobotning shakli.

| Buxgalteriya balansi      |       |                                                            |       |
|---------------------------|-------|------------------------------------------------------------|-------|
| Ushbu satr ko'rsatilmagan | 010-1 | Lizingga olingan asosiy vositalar boshlang'ich qiymati     | 010-1 |
| Ushbu satr ko'rsatilmagan | 011-1 | Lizingga olingan asosiy vositalar eskirish summasi         | 011-1 |
| Ushbu satr ko'rsatilmagan | 012-1 | Lizingga olingan asosiy vositalar qoldiq qiymati           | 011-1 |
| Ushbu satr ko'rsatilmagan | 111   | Lizing bo'yicha uzoq muddatli debitorlik qarzlari          | 111   |
| Ushbu satr ko'rsatilmagan | 181   | Lizingga olingan tovarlar                                  | 181   |
| Ushbu satr ko'rsatilmagan | 261   | Lizingga olingan asosiy vositalar uchun berilgan bo'naklar | 261   |

Ushbu moliyaviy hisobotning shakllariga berilgan takliflar lizing oluvchi va beruvchi korxonalarda lizing muomalari bo'yicha qarzdorlik va qoldig'ini ko'rsatish orqali korxona rahbarlariga va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga lizing bo'yicha ko'rsatkichlar ochib beriladi.



Bizning fikrimizcha, lizing beruvchilarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda 0900 – "Uzoq muddatli debitorlik qarzlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar" schyoti va 4800 – "Turli debitorlar qarzlari" schyotini umumiy, ya'ni "Lizing muomalalari bo'yicha debitorlik qarzi" schyotiga o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida, lizing beruvchi korxonalarda umumiy lizing muomalalari bo'yicha qarzdorlik har bir lizing oluvchi bo'yicha aks ettiriladi va soddalashtirilgan umumiy qarzdorlik vujudga keladi.

Respublikamizda ko'pgina lizing tashkilotlarida berilayotgan asosiy vositalar 0820 – "Asosiy vositalarini sotib olish" schyoti orqali olib boradi. Lekin ushbu schyot uzoq muddatli aktivlarni hisobga oladigan schet bo'lganligi tufayli uni qisqa muddatli (joriy) aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettirish muhim hisoblanadi. Ushbu muammolarini bartaraf etish maqsadida muallif tomonidan "Tovarlar" schyotida alohida analitik hisob yuritilishi uchun 2991-"Lizingga beriladigan asosiy vosita obyektlari (turi bo'yicha)" schyoti ochish tavsiya etiladi. Lizing beruvchi tashkilot SP AO "Uzbek Leasing International A.O." korxonasi buxgalteriya hisobida quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Dt 2991 - "Lizingga beriladigan asosiy vosita obyektlari"

Kt 6000 – "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar"

Dt 0900 – "Uzoq muddatli debitorlik qarzlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar"

Kt 2991 - "Lizingga beriladigan asosiy vosita obyektlari"

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasi oldiga qo'yiladigan talablarni quyidagicha bayon qilish mumkin:

1. buxgalteriya hisobida shakllantirilishi majburiy bo'lgan ma'lumotlarni vujudga keltirish;
2. buxgalteriya hisobida shakllantirilishi ixtiyoriy-majburiy bo'lgan, ya'ni o'zaro kelishuv orqali shakl yoki ko'p tomonlarning manfaatlarini uchun zarur ma'lumotlar to'plamini shakllantirish;
3. buxgalteriya hisobida shakllantirilishi ixtiyoriy bo'lgan ma'lumotlar, ya'ni xo'jalikni joriy boshqarish va istiqboldagi rivojlanishi belgilash uchun zarur ma'lumotlarni vujudga keltirish.

Bu yuqoridagi uchta talab uchun alohida malumotlar yig'iladi degani emas. Chunki buxgalteriya hisobida shakllantirilishi majburiy bo'lgan malumotlar moliyaviy hisobotlar, statistik va soliq hisobotlarini tuzish uchun zarur bo'ladi. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasi ushbu hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlarni to'ldirish uchun zarur ma'lumotlarni tayyorlab berilishi lozim. Lizing bitimi samaraliligini asoslashda amalga oshirish tadrijiyligini turli hisob-kitob va lizing operatsiyalar turli bosqichi o'zaro bog'ligini hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobi yo'nalishi bo'yicha rus olimlaridan biri Kondrakov N.P. aytishicha, ijara shartnomasiga asosan lizing beruvchi lizing oluvchiga ijara to'loviga asosan lizing ob'ektini berishi lozim. Ushbu ijara vaqtida ijara ob'ekti ijara beruvchining mulki hisoblanadi. Ammo ijaraga oluvchida faqatgina bu ijara ob'ektini ishlatish qoladi.

Lizing bo'yicha bitta bitimni amalga oshirish odatda, o'zidan keyin boshqasi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, shuni unutmaslik kerakki, lizing operatsiyasi qatnashchilari turli bosqichlarda birga harakat qiladilar. Amalda lizing operatsiyalari quyidagi masalalarni qamrab oluvchi jiddiy marketing tadqiqotlarini tayyorlash va o'tkazish operatsiyalaridan boshlanadi:

- lizing ob'ektlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini o'rganish;
- texnologiya va uskunalarning yaxshi variantlari xaqida ma'lumotlar majmuini shakllantirish;
- chet el etakchi lizing korxonalari va ilg'or texnika hamda texnologiya etkazib beruvchilar bilan aloqa o'rnatish;
- lizing xizmatini reklama qilish va ichki hamda tashqi bozorlarda lizing uskunasi u yoki bu turiga bo'lgan talabni o'rganish;

Keyingi muhim bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- lizing bo'yicha biznes-reja loyihasini ishlab chiqish va uning tahlili;
- lizing loyihalarini moliyalashtirishning manbalarini shakllantirish;

lizing oluvchilarning kreditga layoqatini va lizing to'lovlar qaytarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar belgilash.

Lizing operatsiyalarning muhim bosqichlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- lizing shartnomasini lizing oluvchi bilan rasmiylashtirish;
- lizing loyihasining barcha qatnashchilari bilan bosh bitimni ishlab chiqish;
- lizing loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq risklarni sug'urtalash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

Lizing bitimi ishga tushirilgan bosqich eng mehnat talab va mas'ul hisoblanadi, ya'ni:

- lizing ob'ektini lizing oluvchiga yetkazib berish;
- lizing uskunasi yig'ish va ishga tushirishni yo'lga qo'yish ishlari;
- lizing mulkidan amalda foydalanishni tashkil etish. Lizing operatsiyasining yakunlovchi bosqichi lizing bitimining amalga oshirish monitoringini o'z ichiga oladi.



Uslubiy jihatdan lizing operatsiyalarini amalga oshirishning yuqorida qayd etilgan bosqichlari xar birining farqi va funksiyasini tushunmay turib, lizing munsoabatlari sifatiga zarar etkazmagan holda ularni amalga oshirish muddatlarini minimallashtirishga erishish muhimdir.

Lizing jarayonida xar qanday lizing turida, asosiysi bo'lib, aniq lizing oluvchilar bilan maqsadli iqtisodiy ishlarni olib borish hisoblanadi, bu ish lizing bitimini mulkka talabnomalar yig'ishdan tortib, to lizing to'lovlari o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash va nazorat qilishgacha bo'lgan barcha bosqichni, lizing ob'ektidan to'g'ri foydalanishdan, to lizing shartnomasini butkul yakunlanishigacha o'z ichiga oladi.

Shuningdek, lizingni baholash bo'yicha hisob-kitoblarda lizing operatsiyasini amalga oshirishda mamlakatimiz amaliyotida pul mablag' oqimini ularni yagona vaqt davriga keltirishi vositasida diskontlashdan foydalanilmaydi. Bizning fikrimizcha, lizing korxonalari lizing to'lovlari sof joriy qiymatini belgilash yo'li bilan pul oqimlarini diskontlash asosida lizingni baholashdagi chet el metodologiyasidan keng foydalanishlari lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida lizing muomalalari muhim ahamiyat kasb etadi. hozirgi vaqtda Xo'jalik yurituvchi subyektlarda lizing muomalalarini keng yo'lga qo'yilishi respublikamizda lizing bozorini izchil rivojlantiradi va o'sish tendensiyasiga ko'maklashadi. Shu bilan birgalikda investisiya muhitini rivojlanishi, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtiruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, mahsulot turini, sifatini va hajmini oshirishga imkon yaratadi. O'z novbatida, xalqaro bozorga kirishni va egallashni taqozo etadi. Xalqaro bozorga chiqish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining hisobotlarini tashqi foydalanuvchilar, investorlarga tushunarli, haqqoniy ma'lumotlar aks ettirilgan hisobotlarni taqdim eishlari lozim.

Jahon ilmiy-texnologik taraqqiyoti davrida iqtisodiy o'sishga ta'sir etgan faol omil bu - sanoat tarmoqlarini lizing asosida texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlanishidir.

Mamlakatimiz lizing muomalalari bo'yicha yangilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlariga asosan lizing korxonalari hisob tizimida ACCAning IFRS 16 "Ijara"ni standart prinsiplarini qo'llashi bevosita xorijiy investorlarning samaradorligiga bog'liq. Lizing bilan bog'liq xalqaro tajribani o'rganish jarayonida, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, lizing muomalalarini xalqaro standartlar asosida hisobini yuritilishida lizing muomalalari bo'yicha risklarni minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 7-son, 88-modda) <https://lex.uz/ru/docs/-3114480>
2. Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari to'plami, 2012, II qism.- T.:«Sano-Standart», 2014 ., 554 b.
3. Material iz Vikipedii — svobodnoy ensiklopedii <https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009 yil 11 maydagi 54-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan)
5. Varonina L.I. Auditorskaya deyatelnost: osnovi organizatsii. Uchebno-prakticheskoe posobie. — M.: Eksmo, 2007. - 336 s.
6. Lizingoviy sektor Uzbekistana: Itogi 2024 goda. Predsedatel «Lizingovoy Assosiasii Uzbekistana» Mustafae Z.B.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---